



О‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA

QAHRMONLAR OBRAZI TALQINI

Andijon Davlat Chet Tillari Instituti

Ergasheva Iroda

Ilmiy maslahatchi: Xomidova Malohat

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning taniqli yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani haqida. Asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligini mahorat bilan tasvirlangan. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka raxna solgan urushni tilga oladi. Ayniqsa, urush vogeligining har bir ota-onal qalbini jarohatlagani, ko‘ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlari – mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshi haqida so‘zlaydi. Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o‘rgangani uchun har bir epizod o‘quvchini qalbiga jiddiy ta’sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlari: insonparvarlik, qonli urush, zakunchi, itoatkorlik, frontorti.

Abstract: The work skillfully depicts the fate of people and the complexity of human life. First of all, the writer mentions the war that threatened peace. In particular, the fact that the reality of war wounded the hearts of every parent and caused pain to their souls constitutes the universal pathos of the novel. The images captured by the writer speak of the qualities of ordinary people - courage, fortitude, patriotism and patience. Since the experienced writer has deeply studied the events of the novel, each episode has a serious impact on the reader's heart. The scenes of life, interpersonal



relationships described in the work, as well as the writer's unique artistic style, are distinguished by their naturalness and sincerity.

Key words: humanitarianism, bloody war, tyrant, obedience, frontline.

Аннотация: В произведении умело описаны судьбы людей и сложность человеческой жизни. Адиб прежде всего упоминает войну, нарушившую мир. В частности, то, что действительность войны ранила сердце каждого родителя и ранила их сердца, составляет всеобщий пафос романа. Образы, написанные писателем, говорят о качествах простых людей – мужестве, силе духа, патриотизме и терпении. Поскольку опытный автор глубоко изучил события романа, каждая серия серьезно затронет сердце читателя. Сцены жизни, межличностных отношений, а также собственный художественный стиль автора отличаются естественностью и искренностью. Роман, состоящий из семи частей и сорока семи глав, уникален по композиционному построению. Писатель умело соединил истории девяти персонажей, принявших участие в повествовании о происходящих в нем событиях.

Ключевые слова: человечность, кровавая война, закунчи, послушание, фронторты.

“ Odam qimmatbaho narsasini yo‘qotsa, achinadi. Tuhmatga qolsa boshini tog‘-toshga uradi. Qadri yerga urilsa, isyon ko‘taradi. Yaqin kishilaridan ayrilsa, dod soladi... Lekin umidingdan ayrilsang g‘alati bo‘larkan. Hech nimaga, hech kimga, hatto o‘z qadringga ham achinmaysan. Dod solmaysan. Isyon ko‘tarmaysan... Go‘yo sen o‘lgansan. O‘zing o‘lib, quruq surating qolgan...”

Ushbu ajoyib jumlalar taniqli o‘zbek yozuvchisi va jamoat arbobi O‘tkir Hoshimovga tegishlidir. Adib bundan 82 yil oldin Toshkentda Do‘mbirobod mahallasida tavallud topgan. Yozuvchining ilk asari 1962-yilda “Po‘lat chavandoz” nomida ocherklar to‘plami tarzida nashrdan chiqdi. “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari”, “Tushda kechgan umrlar” adibning xalq orasida mashhur asarlaridandir. “Ikki

eshik orasi” yozuvchining ikkinchi romani bo‘lib, 1982-1985- yillar orasida yozilgan. Asarda insonlar taqdiri murakkabligi mahorat bilan tasvirlangan. Unda birinchi o‘rinda inson tinchligini buzuvchi urush tilga olingan, uning qiyinchiliklari, front orti azoblari, ochlik, sevgi va nafrat yuksak mahorat bilan ohib berilgan. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-onal qalbini jarohatlagani, ko‘ngillarga dilxiralik keltirishi asarning umumiy pafosini tashkil etadi. Romanda har bir obrazga alohida e’tibor qaratilgan. Bu romanda inson umrining naqadar murakkabligini va taqdirning ayanchli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. O’tkir Hoshimov roman hodisalarini chuqur va teran o‘rgangani uchun, o‘quvchiga har bir voqeа tushunarli va aniq qilib yetkaziladi. 7 qism va 7 bobdan iborat ushbu asar katta-yu kichik ko‘ngliga birdek manzur keladi. Asarni o‘qigan sari qayta-qayta o‘qiging keladi, har o‘qiganda yangi-yangi g‘oyalar tug‘iladi, asardagi ochilmagan qirralar ochilaveradi.

Romanning asosiy voqealari Oqsoqol, Qora Amma, Shomurod, Ra‘no, Kimsan, Robiya, Umar zakunchi, Olimjon singari qahramonlar orqali yoritilgan.

Asardagi voqeа-hodisalar kichkina bir bola Muzaffar nigohida yoritiladi. Albatta, asardagi qahramonlarning ba’zilari insofi, vijdoni, o‘zbek xalqiga xos e’tiqodi bilan kitobxon ko‘nglidan ijobjiy o‘rin olgan bo‘lsa, Umar zakunchi kabi qattiqqo‘l, vijdonsiz, o‘z manfaati yo‘lida hech narsadan tap tortmaydigan, nomard inson salbiy o‘rinni egallagan.

Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko‘rk bag‘ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro‘-e’tibori, eng og‘ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o‘tishga kuch topishi bilan o‘quvchi xotirasiga muhrlanadi. U donishmand, tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan o‘zbek qariyalariga o‘xshab har bir ishda tashabbuskorlikni o‘z qo‘lidan bermaydigan shaxs sifatida gavdalanadi.

Qora amma va Robiya obrazlarida esa haqiqiy o‘zbek ayollarining naqadar sabrli va matonatli ekanligining guvohi bo’lamiz. Qora ammaga e’tibor qaratsak, ona

ichidagi dard, alam qayg‘udan yurak-bag‘ri qorayib ketganligi uning yuzida ham aks etgan. Farzand dog‘i shu ko‘yga solgan. Xalqqa kelgan to‘y hammasining sababchisi edi.

Robiya asarning bosh qahramoni hisoblanib, otasidan ancha yosh yetim qoladi. Qora ammaning uyida yashab, uning tarbiyasini oladi. Kimsan bilan unashtiriladi, biroq Kimsanning taqdirida urushda halok bo‘lish yozilgan edi. Robiya uni kutadi, o‘lмаганлигiga doim ishonadi, lekin bu hayot doimo insonlar istaganidek bo‘lavermaydi. Robiya kichik Muzaffar uchun tog‘a sifatida ko‘рган inson bilan turmush quradi va hayotining davomini birgalikda o‘tkazadi. Mana shu holatlar Robiyaning naqadar itoatkor ekanligini ko‘rsatadi. Asarda voqealar shunaqangi syujetlashtirilganki, o‘qigan inson ko‘z yoshini tindira olmaydi. Mana, masalan, Muzaffarni olaylik, u yoshligida onasining xiyonati sabab undan ayrıldi, to‘g‘ri Robiya unga qo‘lidan kelgancha onalik qildi, mehr ko‘rsatdi, biroq tuqqan onaga hech kim teng kela olmaydi, nahot Muzaffar onam mendan yuz o‘girgan deya o‘ksinmagan bo‘lsa. Bu ham yetmagandek, asar so‘nggida u ko‘ngil bergen insoni emikdosh singlisi bo‘lib chiqadi. Avvaliga qizning uydagilari sovchilarni qaytaradi, Ra’no ham haqiqatni Muzaffarga qanday aytishni bilmaydi, ular orasida nikoh o‘qitib bo‘lmash edi. Ammo Muzaffar va Munavvar sevgisi fojeali tugaydi, ya’ni 1966-yilda Toshkentda bo‘lgan zilzila ularning sevgisiga raxna soldi. Ammo zukko kitobxon shuni biladiki, aslida asar qahramoni, sevgi yo‘lida qurban bo‘lishiga sabab, zilzila emas, balki o‘z sevgilisidan - emikdoshi bo‘lgan Muzaffardan homilador bo‘lishi va nomusiga chiday olmay dori ichib, o‘z joniga qasd qilishi bilan asar nihoyasiga yetadi. Bu voqealr esa barchaning qalbini qattiq larzaga soladi. Munavvarning onasi Bashorat esa bitta-yu bitta qizidan ajrab qolgani unga yomon ta’sir qiladi. Ushbu voqealar asarning naqadar jonli chiqqanidan dalolat beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, asarda urush va urushdan keyingi yillardagi qishloq hayoti, urushning jamiki og‘irliliklari tasvirlangan. Nikoh kechasini ertasigayoq kuyovini jangga jo‘natib, o‘zlari kelinlik liboslarini ish kiyimiga

almashtirib og‘ir va mashaqqatli mehnatlari, ota o‘rniga ketmon ko‘tarib dalaga chiqqan go‘daklar, o‘g‘li o‘rniga yer chopgan chol-u kampirlar ko‘z o‘ngingizda paydo bo‘ladi. Ochlik, yupunlik, ayriliqlar, erta hazon bo‘lgan muhabbat alamlari, judoliklar, qarg‘ish, yig‘i, g‘azab hamma-hammasi romanda nihoyatda ishonarli tasvirlangan. Shu o‘rinda ijodkorning mashhur jumlasini aytmoqchiman “Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o‘qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o‘qib bo‘lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to‘lg‘onib chiqsa. Oradan yillar o‘tib asarni qo‘liga qayta olganida tag‘in hayajonlansa, yangi ma‘nolar topsa. Eng katta orzuyim shu...” deb yozadi sevimli adibimiz, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hoshimov O‘.Ikki eshik orasi. Roman.
2. Hoshimov O‘.Sakkizinch mo‘jiza. Toshkent.
3. Sharafiddinov O.“Ikki eshik orasi” romani haqida
4. Baxronova Matluba Axmedovna. Badiiy asarlarga ko‘chgan hayot saboqlari.